



## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA STATISTIK MASALALARNI YECHISHNI TASHKIL QILISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Radjiev Ayubxon Baxtiyorxonovich**

*Kadrlar malakasini oshirish va  
statistik tadqiqotlar instituti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada statistik faoliyatni tashkil qilishdagi muammolar, unga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish yo'llari, tuman statistika bo'limi faoliyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** statistika, statistik faoliyat, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, axborot, statistik axborot, axborot tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОЦЕССОВ ОРГАНИЗАЦИИ РЕШЕНИЯ СТАТИСТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Раджиев Аюбхон Бахтиёрхоневич**

*Институт подготовки кадров  
и статистических исследований*

**Аннотация.** В данной статье раскрываются проблемы организации статистической деятельности, пути внедрения современных технологий в данную сферу, предложения по совершенствованию деятельности районного отдела статистики на основе информационно-коммуникационных технологий.

**Ключевые слова:** статистика, статистическая деятельность, макроэкономические показатели, информация, статистическая информация, информационная система, информационно-коммуникационные технологии.

## IMPROVING THE PROCESSES OF ORGANIZING STATISTICAL PROBLEM SOLVING BASED ON MODERN TECHNOLOGIES

**Radjiev Ayubkhon Bakhtiyorxonovich**

*Institute of Personnel Training  
and Statistical Research*

**Abstract.** The article reveals the problems of organizing statistical activities, ways to introduce modern technologies in this area, suggestions for improving the activities of the district statistics division based on information and communication technologies.

**Key words:** statistics, statistical activities, macroeconomic indicators, information, statistical information, information system, information and communication technologies.

### **Kirish.**

Milliy statistika xizmatining tuman darajasida shakllanadigan statistik axborotlari tuman iqtisodiyotining holati va rivojlanishining umumiy holatini kompleks ravishda ifodalab, uning hududida joylashgan korxonalarining iqtisodiy jihatlarini ham o'zida aks etadi. Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohot va o'zgarishlar tuman darajasidagi statistik axborotlarni tubdan o'zgartirib yubordi. Oxirgi vaqtlarda tuman darajasidagi korxonalar va tashkilotlar birlamchi statistik hisobotlarni tuman statistika bo'limlariga elektron ko'rinishda topshirishni yo'lga qo'yishib, oldingi vaqtlardagi viloyat boshqarmasiga topshirishdan voz kechishdi.

Bu o'z o'rnida kichik biznes subyektlari va yirik korxonalarining turli davlat statistika hisobotlarini o'z vaqtida va sifatli topshirishlari uchun juda qulay shart-sharoitlar yaratib, ular bilan tuman statistika xodimlari to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar qilishlari uchun zamin yaratadi. Bundan tashqari davlat va nodavlat mulk shaklidagi turli yangi tuzilgan korxonalar uchun bunday hisobot topshirish texnologiyasi juda keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Tuman darajasida statistik hisobotlar quyidagi faoliyat sohalari bo'yicha, ya'ni ta'lim, tibbiyot, sport, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar kabilarni qamrab olmoqda. Natijada, tuman darajasida yangi statistik ko'rsatkichlarga talab paydo bo'lib, yangi statistik hisobotlarni joriy qilish talab qilinib, ular joylarda bo'layotgan o'zgarishlarni aniq aks etishi va foydalanuvchilarni sifatli statistik axborotlar bilan ta'minlashga qaratilgandir (Божко, 1999; Елисеевой, 2014).

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, statistika tizimining tuman bo'g'ini yuqorida keltirilgan masalalarni muvoffaqiyatli yechishlarida ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bulardan, ayrim tuman darajasida shakllanishi kerak bo'lgan ko'rsatkichlar oy va choraklik davrlarda statistik hisobotlar asosida shakllanmayapti, chunki ularni topshirish davriyligi yillik qilib belgilandi. Buning o'rniga tuman statistika bo'limlari tomonidan o'tkazilib kelinayotgan statistik kuzatuvlarning sifat darajasi hozirgi kunning talabiga to'liq javob bermayapti. Ayrim statistik hisobotlardagi ko'rsatkichlar boshqalarda topshirilayotgan ko'rsatkichlar bilan bir-birini qaytarish hollarini ham kuzatish mumkin. Bu muammolarni hal qilishda, bizning fikrimizcha zamonaviy AKT, planshetlar, sun'iy sputnik rasmlari va boshqalar funksional imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak bo'ladi (Бегалов, Жуковская, 2016; Божко, Гаспариан и др., 1999; Божко, Хорошилова 2002).

### Adabiyotlar sharhi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot tizimlaridan milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohasida samarali foydalanish muammolariga mamlakatimiz va chet el olimlarining ko'pgina ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Boshqaruv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni yechish va biznes-jarayonlarni takomillashtirishda AKT va axborot tizimlaridan samarali foydalanish masalalarining nazariyasi va uslubiyotini yanada takomillashtirishda ko'plab chet el olimlari o'z ilmiy tadqiqotlari bilan ulkan hissa qo'shishgan.

Akademik G'ulomov (2010) o'z ilmiy ishlarida axborotlar oqimlarini optimal tashkil qilish, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotda samarali qo'llash va raqamli iqtisodiyotning shakllanib borish jarayonlari keng yoritib bergan.

Professor Alimov (2001) olib borgan tadqiqotlarida milliy iqtisodiyotning turli tarmoq va sohasiga axborot tizimlarini joriy qilish, ularning tizimostilarini optimal loyihalashtirish, texnik va dasturiy-texnologik vositalardan samarali foydalanishning iqtisodiy-matematik modellarini taklif qilgan.

Begalov (2013) ilmiy ishlarida statistik reglament masalalarini yechish-ning algoritmlari va modellarini, axborotlashgan jamiyatning shakllanishi tendensiyalarini, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda AKTdan keng foydalanish mexanizmlarini va ta'lim jarayonlariga innovatsion axborot texnologiyalarini keng joriy qilish muammolarini o'rgangan.

Quchkarov (2019) o'z ilmiy ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini moliya tizimi muammolarini hal qilishda qo'llash, g'aznachilik masalalarini ilg'or axborot tizimlari asosida yechishning yangi yondshuvlarini va idoralararo axborot almashuvni keng yo'lga qo'yishda axborot tizimlarining integratsiyasini yo'lga qo'yish kerakligini taklif qilgan.

Laudon, Laudonlar (2015) o'z tadqiqot ishlaridan axborot tizimlarini ishlab chiqish va iqtisodiyot tarmoqlarida samarali qo'llashning metodologiyasini taklif qilishgan. Ularning ilmiy ishlarida axborot tizimlarining infratuzilmasi, tarmoq texnologiyalari, axborot tizimlarini loyihalashtirish va ishlab chiqish, axborot texnologiyalarining infratuzilmasi kabi masalalar ko'rib chiqilgan.


### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot davomida davlat statistika hisobotlarini axborot tizimi orqali qabul qilish va qayta ishlashning samaradorlik ko'rsatkichlarining amaldagi holati mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, iqtisodiy-statistik tahlil va sintez, statistik guruhlash, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanilgan.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Shahar va tumanlar rivojlanishining kompleks ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini yechish uchun yo'naltirilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ularning turli jabhalarini qamrab olgan aniq, obyektiv va dolzarb statistik axborotlarga ega bo'lishlik talab qilinadi. Lekin, shahar va tumanlar hududida joylashgan turli korxonalar va tashkilotlarning faoliyatlarini hududiy jihatdan chuqur tahlil qilish kerakli bo'lgan statistik ma'lumotlar bilan kerakli ta'minlanmaganligi munosabati bilan mumkin bo'lmay qolmoqda. Bular asosan tumanlarning infratuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlarga taalluqli bo'lib, ularga savdo, xizmatlar, ishlab chiqarish kabilar kiradi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, AKTni statistika faoliyatiga keng joriy qilinguncha 1-rasmda keltirilgan birlamchi statistik hisobotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish va foydalanuvchilarga taqdim qilish texnologiyasi mavjud edi. Undan ko'rinib turibdiki, birlamchi statistik ma'lumotlarni subyektlardan yig'ishning uchta bo'g'ini mavjud bo'lib, unda korxonalar va tashkilotlar statistik hisobotlarni to'g'ridan-to'g'ri tuman statistika bo'limiga qog'oz shaklda taqdim qilib kelishgan. Tuman statistika bo'limlari esa birlamchi hisobotlarni umumlashtirib, keyingi bo'g'in, ya'ni viloyat statistika boshqarmasiga, ular esa o'z o'rnida DSQning Hisoblash markaziga avtomatlashtirilgan usulda qayta ishlash uchun jo'natilgan. Ushbu mavjud texnologiyada davlat statistika hisobotlari subyektlardan faqat qog'oz shaklda qabul qilib kelingan. Shuni ta'kidlash joizki, birlamchi statistik ma'lumotlarni har bir bo'g'inda hisoblash mashinalari xotirasiga kiritishda ma'lum bir miqdorda xatoliklarga yo'l qo'yilishi tabiiy holdir. Bu esa o'z o'rnida yig'ma va yakuniy hisobotlarning sifati, obyektivligi va shaffofligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.



**1-rasm. AKTni keng qo'llashgacha DSQ tizimidagi statistik hisobotlarni yig'ishning mavjud texnologiyasi**

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, statistik axborotlarning sifat jihatlarini asosan quyidagilar ifodalaydi (Abdullayev, 2002; Божко, Хорошилова 2002; Божко, 1999):

yxlitlilik, statistik kuzatuvlarni ilmiy asoslangan xalqaro uslubiyot va prinsiplar asosida tashkil qilish;

keraklilik, foydalanuvchilarga axborotlarning zarurlilik darajasi;

ishonchlilik, statistik kuzatuvlar natijalarining ijtimoiy-iqtisodiy xodisalarni to'g'ri aks etish darajasi;

o'z vaqtidalilik, ruxsat berilgan vaqt intervali bo'lib, unda statistik axborot o'zining dolzarbligi va kerakligini yo'qotmaydi;

hammaboplik, statistik nashrlar va mikroma'lumotlarga kirish imkonini beruvchi usul va yo'sinlar;

izohlash imkoniyati, foydalanuvchilarning statistik ma'lumotlarni obyektiv reallik bilan solishtirish imkoniyati.


Boshqaruv organlarining sifatli statistik axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun statistik hisobotlar shakllarida mavjud bo'lgan ko'rsatkichlar tizimi yordamida tumanning holati va rivojlanishini tavsiflab berish mumkindir. Bu borada boshqaruv subyektlari, hudud darajasida va davlat miqiyosida shakllanadigan statistik ko'rsatkichlarni ajratib olish kerak bo'lib, ayrimlari esa faqat yuqori darajadagi rahbariyat uchun shakllanishini ham e'tiborga olish kerakdir.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar borayotganda tuman darajasida statistika bo'limlarining roli foydalanuvchilarni sifatli va dolzarb statistik axborotlar bilan ta'minlab berishda ortib bormoqda. Lekin, statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlashda statistika bo'limlarining ana'naviy o'zni bo'yicha ma'lum bir qiyinchiliklar paydo bo'lmoqda. Statistik axborot tizimlari faoliyatida tuman statistika bo'limlarining rolini pasayishi, ularni faqat birlamchi statistik axborotlarni yig'ish va qayta ishlashga yo'naltirish mavjud tizimning yagona holda samarali ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Foydalanuvchilar, avvalom bor tuman boshqaruv organlari obyektiv boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun kerak bo'lgan tezkor va aniq statistik materiallardan bahramand bo'lmaydi. Hozirgi kunda tuman darajasida faoliyat ko'rsatayotgan statistika bo'limlari esa korxonalar va tashkilotlardan kelib tushayotgan barcha statistik ma'lumotlarni to'liq qayta ishlashini o'z zimmasiga ololmaydi. Bundan tashqari, bu borada juda ham ishlarni markazlashtirish esa chiqish statistik materiallarni tayyorlash muddatlarini qisqartirish va sifatini yuksaltirishga to'g'ridan-to'g'ri olib kelmaydi.

Shunday qilib, hozirgi kunda joylardagi organ rahbarlari va boshqa foydalanuvchilarni samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, avvalom bor ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda kerak bo'lgan statistik axborotlar bilan ta'minlashda SATlarning roli ortib bormoqda. Lekin, statistik hisobotlarni taqdim qilish tartibi, hajmi va tarkibidagi o'zgarishlari munosabati bilan tuman darajasidagi statistika faoliyatini isloh qilishda ilmiy va shoshmasdan yondashuvni talab qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, axborot-hisoblash ishlarini samarali bajarish uchun davlat statistika organlari rivojlangan hisoblash tarmoqlari, axborot tizimlari, AKT, aloqa vositalari va boshqa texnikalar bilan ta'minlangandir. Ular tomonidan birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, taqdim qilish va saqlash borasida zamonaviy AKT va axborot tizimlarini samarali qo'llash yo'lida katta tajriba orttirilgan. Statistik organlari tomonidan statistik axborotlarni ko'pgina korxonalar va tashkilotlar hamda foydalanuvchilarga shartnoma asosida taqdim qilish xizmatlari ham keng yo'lga qo'yilgan. Shunday qilib, SATlar davlat axborot tizimlarining asosiylaridan hisoblanadi, chunki ular milliy iqtisodiyotni boshqarish uchun kerak bo'lgan statistik axborotlarni avtomat-lashtirilgan usulda yig'ish va qayta ishlashni to'liq amalga oshiradi.

AKTning tez rivojlanib borishi va ularning funksional imkoniyatlarining yanada kengayishi davlat statistika hisobotlarini topshirish jarayonlarini to'liq qog'ozsiz texnologiyalar asosida yo'lga qo'yish imkonini berdi (2-rasm). Hozirgi kunda korxonalar va tashkilotlar oylik, choraklik va yillik davlat statistika hisobotlarini elektron shaklda Internet orqali to'g'ridan-to'g'ri topshirish imkoniyati yaratilib, hisobot elektron shakllari DSQning Markaziy serveriga kelib tushadi.



**2-rasm. AKTni keng qo'llash asosida DSQ tizimidagi statistik hisobotlarni yig'ishning mavjud texnologiyasi**

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu texnologiyaning keng joriy qilinishi natijasida hisobot topshiruvchilarga juda katta imkoniyatlar yaratib berildi. Bundan tashqari, endi respublika bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi shakllanib, undan nafaqat viloyat statistika boshqarmasi, balki tuman statistika bo'limlari ham keng foydalana boshlashdi. Birlamchi statistik ma'lumotlarni subyektlarga o'zlari shaxsiy kompyuterlar orqali markaziy ma'lumotlar bazasiga kiritish imkoni yaratib berilib, ular unda elektron raqamli imzolardan foydalanishlari shartdir.

Statistik axborot tizimlarida statistik ma'lumotlarni qayta ishlashni tashkil qilishda quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

iqtisodiy masalalarning muhim sinfi sifatida statistik masalalarni yechishning o'ziga xos xususiyatligi;

axborotlarni qayta ishlashning texnik va dasturiy-texnologik vositalarining rivojlanish darajasining yuqoriligi;

davlat statistika organlarining tarkibiy-tashkiliy va uning hisoblash tarmog'ining tuzilishi.

Statistik axborot tizimlarining rivojlanib borish boshqichidan qat'iy nazar statistik masalalarning asosiy guruhlarga tasniflashni aniqlash va ularni avtomatlashtirilgan usulda yechishni aniqlab olish kerak bo'ladi. Foydalanuvchilar nuqtayi-nazaridan statistik masalalar ko'zlangan maqsaddan kelib chiqqan holda reglamentli va so'rovlar asosidagilarga ajratilib, ular o'z o'rnida esa iqtisodiy tahlil va axborot xizmat ko'rsatish masalalariga bo'linadi.

Reglamentli masalalar ostida davlat statistika organlari tizimining tegishli darajasida statistik hisobotlaridagi ma'lumotlarni qayta ishlash tushunilib, ularni yechish uchun esa axborotlarni qayta ishlashning elektron komplekslari qo'llaniladi. Ular lokal axborot massivlaridan foydalangan holda alohida reglament masalalarini yechishni ta'minlab beradi.

Axborot xizmat ko'rsatish esa foydalanuvchilar so'rovlari asosida ularga ma'ruzalarni tuzish, tahliliy ma'lumotnoma va press-reislarni tezkor tayyorlash uchun kerak bo'lgan statistik ma'lumotlarni shakllantirish tushiniladi. Ushbu masalalarni yechish avtomatlashtirilgan registr va avtomatlashtirilgan ma'lumotlar banki yordamida amalga oshirilib, foydalanuvchilar so'rovlari bo'yicha turli shakl bo'yicha axborotlarni taqdim qilish ta'minlanadi.

Iqtisodiy tahlil masalalarini yechish dinamik qatorlar va matematik statistika metodlariga asoslangandir. Ushbu metodlar asosida masalalarni yechishda tahliliy komplekslardan foydalanib, ular amaliy dasturlar paketi ko'rinishida bo'ladi.



Shuni ta'kidlash joizki, statistik hisob tizimi uzoq vaqt mobaynida markazlashgan rejalashtirishning metodologik asoslariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, u yoppasiga o'tkaziladigan statistik kuzatuvlar asosida tashkil qilinadi. Ko'rsatkichlar tarkibi vazirlik va idoralarning boshqaruv talabini hisobga olgan holda shakllantirilgan bo'lib, ular belgilangan reja topshiriq va texnik-iqtisodiy me'yorlarning bajarilishini nazorat qilish uchun yo'naltirilgan edi. Hisob tizimi birinchi o'rinda ichki xo'jalik material va mehnat resurslarining aylanishini aks etishi, ulardan foydalanish va qayta taqsimlashni aks etishi kerak. Bu borada korxonalarda ishlab chiqarish statistikasi boshqa statistik kuzatuvlar sektorlari oldida ustunlik qilar edi. Ijtimoiy soha, xizmatlar statistikasi, aholi turmush darajasi va jamiyat rivojlanishining boshqa muhim jihatlarini yuritish statistikasiga ziyon keltirib ishlab chiqarish haqidagi statistik ma'lumotlar hisobi ustunlik qilgan.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p yillar mobaynida statistika metodologiyasi jahon amaliyotidan uzilib qolgan bo'lib, obyektiv xalqaro solishtirishlarni olib borishni murakkablashtirgan edi. Sobiq tuzim statistikasida xalqaro tushunchalardan mazmun jihatdan farq qiluvchi iboralar qo'llanilib, ulardan narx statistikasi, ishchi kuchi narxi, narxlar indeksi kabilarni keltirish mumkin. Statistika fan va davlat boshqaruvining elementi sifatida dastlabki mazmunini yo'qotib, administrativ tizimning hisob va nazorat qilish funksiyasiga aylanib qolgan edi. Oldingi davr statistikasiga maxfiylik, materiallarni ochiq chop etish uchun seleksiya qilish va targ'ibot ishlarida bir tomonlama foydalanish xos edi.

Statistik ma'lumotlarni yig'ishning yoppasiga amalga oshirish usuli o'sha vaqtlarda hukmronlik qilgan edi. U vaqtlarda tanlanma statistik kuzatuvlar deyarli amaliyotda qo'llanilib kelinmagan.

Shuni ta'kidlash joizki, statistik axborotlarni ishlab chiqish jarayoni judayam mehnatalab bo'lib, yoppasiga yig'ilgan statistik hisobotlar asosidagi katta hajmdagi ma'lumotlar massivini tezkorlik bilan qayta ishlash talab qilinadi. Lokal axborotlar massivini shakllantirish, aloqa kanallari asosida axborotlarni uzatish vositalarining rivojlanmaganligi va iqtisodiy axborot tizimlarini yaratishning metodologik ta'minoti darajasining pastligi sharoitida EHMLarda markazlashgan holda qayta ishlash ustunlik qilar edi. Statistik kuzatuvlarning asosiy usullaridan bo'lmish hisobot berish ro'yxatga olinadigan va hujjatlashtiriladigan ma'lumotlar asosida yuritilib, ular avvalombor nazorat qilish uchun mo'ljallangan edi.

Statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning axborot tizimlari boshqaruvning administrativ, ierarxik darajalari bo'yicha yig'ma natijalarni olish uchun ishlab chiqilgan edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tilishi bilan oldingi tashkil qilinib kelingan yondashuvlar o'z dolzarbligini yo'qotishdi. Milliy iqtisodiyotda bo'layotgan turli o'zgarishlar statistika sohasida quyidagilarga olib keldi:

statistik kuzatuvlarga tushuvchi obyektlar sonining tezkorlik bilan o'sib ketishi;

tadqiq qilinayotgan muhit dinamikligining bir necha barobar ortib borishi;

korxonalar va tashkilotlar mulkchilik shaklining turli-tumanligi;

har bir iqtisodiy subyekt iqtisodiy faoliyati sohasining kengayib borishi;

milliy iqtisodiyot tarkibining transformatsiyalashuvi natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy subyektlari sonining tez o'sib ketishi.

## 1- jadval

### Statistik natijaviy ko'rsatkichlardan foydalanuvchilar kategoriyalari

Foydalanuvchilar kategoriyalari	Maqsadlari
Hukumat	Aniq ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar, dasturlar, yo'l xaritalarini rejalashtirish, ularning bajarilishiga baho berish va borish jarayonlarini monitoring qilish
Korxonalar va firmalar	Tijorat faoliyati uchun boshqaruv qarorlarini qabul qilish
Tashkilotlar	Muzokaralari o'tkazish, dasturlar qabul qilish
Tadqiqot olib boruvchilar	Turli tendensiyalarni o'rganish, ijobiy va salbiy jihatlarini ko'rsatib berish va istiqboldagi rivojlanish ssenariylarini taklif etish.
Jamoatchilik, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari	Demokratik jarayonlarda ishtirok etish, elektorat bilan uchrashuvlarni yuqori darajada tashkil qilish.

Iqtisodiy sohada bo'layotgan o'zgarishlarning tavsiflari hozirgi bosqichda mamlakat statistika axborot tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish yo'llarini aniqlab berib, uning asosiylaridan bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

tarmoq va sohalar kesimida statistikani yuritishdan korxonalar va tashkilotlar darajisida tashkil qilish prinsiplariga o'tish;

statistik majmuilarni o'rganishda tanlanma kuzatuvlar usullaridan keng foydalanish;

statistika tizimining bashoratlarni va keng ko'lamli hamda chuqur tahlil qilish funksiyalarini yanada rivojlantirish;

integratsiyalashgan statistik ma'lumotlar bazasini tashkil qilish;

ma'lumotlarni uzatishning zamonaviy vositalari va AKTni keng qo'llash.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, AKTlari va SATni keng qo'llagan holda shakllangan statistik natijaviy ko'rsatkichlarning foydalanuvchilari quyidagi kategoriyalarga ajraladi (1- jadval).

### **Xulosa va takliflar.**

Statistik axborotlar odatda direktiv maqsadga yo'naltirilgan harakatlarning axborot ta'minotining bir qismi bo'lib xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, statistik axborotlarni semantik jihatlarini umumlashtirganda uchta ibora paydo bo'ladi, ya'ni mikroma'lumotlar, makroma'lumotlar va metama'lumotlar.

Mikroma'lumotlar, bu ma'lum bir obyektning tavsifiy jihatlarini kuzatish natijasida olinadi.

Makroma'lumotlar, bu statistik tavsiflar to'plamiga umumlashgan holda baho berish natijasida shakllanadi.

Metama'lumotlar, bu statistik ko'rsatkichlarning shakllanish usuli, tartib va unga mas'ul bo'lgan shaxslar haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Amaliyotdan kelib chiqqan holda, statistik ishlar dasturiga yo'nalishlar tarkibi, ularga kiruvchi masalalar soniga kerakli o'zgartirishlar kiritish mumkin. Lekin, bozor iqtisodiyotining yanada rivojlanib borishi va erkin raqobatning kuchayishi sharoitida tadbirkorlar tomonidan tashqi va ichki bozordagi tovarlar haqidagi statistik axborotlarga borgan sari ortib bormoqda. Oxirgi yillarda jamiyatning rivojlanib borish tendensiyalari, yashash sharoiti va darajasi, aholining daromadlari va xarajatlari, ommaviy axborot vositalari, mahalla fuqaro yig'inlari darajasidagi axborotlarga bo'lgan talab keskin ortmoqda.

Oldinlari statistik axborotlarni mashina usulida qayta ishlash ikki yo'nalishda, ya'ni birinchisi birlamchi ma'lumotlarni yig'ib uning asosida yig'ma statistik hisobotlarni amalga oshirgan bo'lsa, ikkinchidan esa statistik axborotlarni to'g'ridan-to'g'ri mashinada qayta ishlashni amalga oshirib kelingan. Hozirgi kunga kelib, oylik, choraklik va yillik davlat statistika hisobotlarini subyektlar Internet orqali to'g'ridan-to'g'ri topshirayotganligi keng yo'lga qo'yilganligi uchun bunday yo'nalishlar bo'yicha ishni tashkil qilishga hojat umuman qolmadi.

Umuman olganda hududiy statistika organlarining tarkibiy tuzilishi, yechadigan masalalari va funksiyalari DSQning markaziy apparati bilan o'xshashdir. Oxirgi vaqtlarda markaziy apparat va hududiy statistika boshqarmalari nafaqat statistik ma'lumotlarni tayyorlash va chop etish bilan shug'ullanishmoqda, balki ular boshqaruv organlarini kerak bo'lgan axborotlar bilan ta'minlash borasida tahliliy ishlarni ham keng amalga oshirib kelishmoqda. Tarmoq bo'limlari statistik axborotlarni avtomatlashtirilgan usulda qayta ishlash bilan shug'ullanish bilan birga yuqoridagi keltirilgan funksiyalarni ham bajarib, qayta ishlanayotgan axborotlar hajmidan kelib chiqqan holda vaqtinchalik xodimlar sonini boshqa bo'limlar hisobiga ko'paytirishi mumkindir.

Shunday qilib, davlat statistikasi respublika darajasida statistika axborot tizimini tashkil qilishning asosi bo'lib xizmat qilib, mamlakat milliy iqtisodiyotini boshqarish va boshqa axborotlardan foydalanuvchilarga kerak bo'lgan hisob-statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va taqdim qilish uchun xizmat qiluvchi ko'p darajali tizimni o'zida namoyish qiladi. Statistik axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga keng joriy qilishdan asosiy maqsad ham turli foydalanuvchilarni tuman, viloyat va respublika darajasida statistik axborotlarga bo'lgan talabini minimal mehnattalablik va xarajatlar sarf qilib sifatli va to'liq ta'minlash hisoblanadi.

**Adabiyotlar / Lumezamypa / Literature:**

Abdullayev Yo. (2002) *Statistka nazariyasi*. – T.: “O’qituvchi”, – 592 b.

Alimov P.X., Xodiyev B.Yu. (2001) *Axborot-kommunikatsiyalar bozori: shakllanish, tendensiyalar, ekonometrik modellashtirish va rivojlanish. Monografiya. Toshkent. FAN.*

Gulomov S.S., Begalov B.A. (2010) *Informatika va axborot texnologiyalari Darslik, “Fan” nashriyoti, -685 b.*

Kuchkarov T.S. (2019) *Raqamli iqtisodiyot sharoitida O‘zbekiston Respublikasi g‘aznachiligi axborot tizimini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: -258 b.*

Laudon, K.C. and Laudon, J.P. (2015) *Management Information Systems: Managing the Digital Firm. Prentice Hall Press, Upper Saddle River.*

Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. (2013) *Информационно-коммуникационные технологии в эффективной организации статистической деятельности в условиях формирования инновационной экономики. /Монография –Т.: Фан, – 158 с.*

Бегалов Б.А., Жуковская И.Е. (2016) *Методологические аспекты влияния информационного общества на инновационное развитие экономики. Монография. Ташкент: Фан ва технологиялар. - 134 с.*

Божко В.П. (1999) *Статистические информационные системы: Учебное пособие. // Под ред. В.П. Божко. –М.: МЭСИ.*

Божко В.П. и Хорошилова А.В. (2002) *Информационные технологии в статистике: Учебник для вузов. //Под ред. В.П. Божко и А.В. Хорошилова. - М.: АО «Финстатин- форм»,.*

Божко В.П., Гаспарян М.С., Забелин В.Н., Иванова Е.И., Прякина Е.В., Шмелев В.В. (1999) *Информационные технологии в статистике: Учебно-практическое пособие / Московский государственный университет экономики, статистики и информатики. - М.: МЭСИ, - 111 с.*

Елисеевой И.И. (2014) *Статистика: учебник для бакалавров / под ред. И. И. Елисеевой. — 3-е изд., перераб. и доп. –М.: Издательство Юрайт, -558 с. –Серия : Бакалавр. Углубленный курс.*